



UDK: 821.512.133-1

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-8233-9870>

SHE'RIY TURKUMLARNING SHAKLLANISH TARIXI

*Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna,
Guliston davlat universiteti professori v.b. filologiya fanlari doktori
obida_fayzullayeva@mail.ru +998943550334*

Annotatsiya Mazkur maqolada she'riy sikllilikning shakllanishi va rivojlanishi masalasi o'rganilgan bo'lib, ushbu mavzuning xoriyda, xususan, rus adabiyotshunosligida o'rganilishiga atroflicha to'xtanilgan. Sikllilikning badiiy xususiyatlari sifatida badiiy asarlar strukturasi, sikl tarkibida qo'llanilgan estetik vositalar tizimi tushunilishi, bu holatda asarning badiiy g'oyasi va tasviriy vositalar jamlanmasi o'rtasidagi munosabatni o'rnatish ham muhim ekanligi xususida so'z yuritilgan.

O'zbek sonetlarida tturkumlilik hodisasi tipologik xususiyatlarni mujassamlashtirganligi aniqlangan sonet sikllari uch sonetdan o'n sonetgacha birlashtirilganligi aniqlanib, sikl tarkibidagi sonetlarni mohiyatan izchil va ketma-ket bog'liqlikda anglash muhim ekanligi, ular mazmunan biri-birini to'ldirib, xulosa sari borishi, kompozitsiya va syujet unsurlarining joylashuvida ham o'zaro mutanosiblik kuzatilishi haqidagi xulosa fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: sonetnavislik, sikllilik, kompozitsion yaxlitlik, kechinma tabiati, yagona mavzu, estetik vositalar tizimi, badiiy g'oyasi, sonet-gulchambar, sonet-magistral va h.k.

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЭЗИЧЕСКОГО ЦИКЛА

Аннотация В данной статье рассматривается становление и развитие поэтического цикла, акцентируя внимание на изучении данной темы за рубежом, особенно в русской литературе. Художественными признаками категории являются структура художественных произведений, система эстетических средств, используемых в сериале, в этом случае важно установить связь между художественной идеей произведения и набором изобразительных средств.

В узбекских сонетах установлено, что явление цикличности воплощает в себе типологические особенности, установлено, что сонетные циклы объединяются от трех до десяти сонетов, а также указано, что важно понимать сонеты в цикле в последовательной и последовательной взаимосвязи, что они дополняют друг друга по содержанию и

приводят к заключению, а также наблюдается взаимная пропорциональность в расположении композиционных и сюжетных элементов.

Ключевые слова: сонетное письмо, цикл, композиционная целостность, характер переживания, единая тема, система эстетических средств, художественная идея, сонет-венок, сонет-магистрал, и др.

HISTORY OF THE FORMATION OF THE POETRY CYCLE

Annotation This article examines the formation and development of the poetic cycle, focusing on the study of this topic abroad, especially in Russian literature. The artistic features of the category are the structure of works of art, the system of aesthetic means used in the series, in this case it is important to establish a connection between the artistic idea of the work and the set of visual means.

In Uzbek sonnets, it has been established that the phenomenon of cyclicity embodies typological features, it has been established that sonnet cycles are united by three to ten sonnets, and it is also indicated that it is important to understand the sonnets in the cycle in a consistent and consistent relationship, that they complement each other in content and lead to a conclusion, and there is also a mutual proportionality in the arrangement of compositional and plot elements.

Key words: sonnet writing, cycle, compositional integrity, character of experience, single theme, system of aesthetic means, artistic idea, wreath sonnet, mainline sonnet, etc.

KIRISH

Turkumlilik “mustaqil asarlar guruhlarini yangi ko‘p komponentli badiiy birliklar – sikllarga birlashtirish” jarayoni sifatida muhim ahamiyatga ega. Chunki turkumlilikdan foydalanib, ijodkor dunyoning yaxlit suratini tasavvur qilish uchun janr chegaralarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘lishi ularga keng imkoniyatlar tug‘diradi. Shuningdek, turkumlilik nisbatan barqaror tuzilishga va doimiy xossalarga ega bo‘lgan janrlar birligi sifatida anglashiladi. Turkumlilik adabiyotshunoslar tomonidan badiiy asarlar uchun alohida badiiy imkoniyat sifatida qabul qilingan, chunki sikl tarkibidagi har bir she‘r mustaqil badiiy asar sifatida baholanishi, biroq sikldan alohida qilib chiqarilsa, g‘alizlikka uchrashi ham haqiqatdir.

Mazkur maqolada she‘riy turkumlarning shakllanishi va rivojlanishi tadqiq etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turkumlilik haqida ko‘plab nazariyotchilar tadqiqotlarida ham fikr bildirilgan o‘rinlar mavjud. Xususan, N.D.Tamarchenko, B.O.Korman, V.P.Skobelev, V.Kramov, M.Landor, V.V.Agenosov va boshqalar shular jumlasidan.

Shuningdek, turkumlilik nazariyasi va tarixiga oid tadqiqotlarni rus adabiyotshunoslaridan A.N.Veselovskiy, B.V.Tomashevskiy, V.M.Jirmunskiy, Yu.N.Tynyanov, B.M.Eyxenbaum, Yu.M.Lotman, L.Ya.Ginzburg, M.N.Darvin, I.V.Fomenko, Yu.V.Lebedev, A.G.Kovalenko, L.E.Lyapina, V.Fridrix va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rish mumkin.

Turkum asarlar yozgan ijodkorlarga bag‘ishlangan tadqiqotlar, ularda yozuvchilarning janrlar tizimi xususiyatlari, muallif qo‘ygan muammo, munosabat va uslub asosi sifatidagi yumor xususiyatlari va boshqalar ko‘rib chiqilganligi N.Vygon, V.Toporov, M.Lipovetskiy, N.Anastasyev, A.Aryev, A.Karpov, L.Losev, B.Kulle, A.Genis kabilarning ishlarida kuzatilgan.

Maqolada qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil, genetik, struktural metodlardan unumli foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

She‘riy turkumlilikning shakllanishi uzoq o‘tmish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning o‘rganilishi XX asrga to‘g‘ri keldi. Bugungi kun o‘zbek adabiyotshunosligida ushbu masala atroflicha o‘rganilmagan. Lekin jahon adabiyotshunosligida, xususan, rus adabiyotshunosligida masala turfa jihatlariga ko‘ra o‘rganilgan va bu mavzuga daxldor aksar badiiy asarlar tadqiq etilgan. Xususan, XX asrning 2-yarmi adabiyotida turkumlilik hodisasi asosan nasriy asarlarda kuzatilgan va tadqiqot ob‘ektlari ham aynan aksar holatda nasriy asarlar ekanligi kuzatilgan (V.Shukshin, A.Bitov, F.Iskander, V.Astafiyev, V.Belov, L.Petrushevskayalar tadqiqotlari shular jumlasidan). Bundan tashqari ayrim yirik tadqiqotlar tarkibidaga fasllarda ham bu hodisaga qaysidir darajada munosabat bildirilgan, ularning nazariy jihatlariga ahamiyat qaratilgan o‘rinlar mavjud. Xususan, V.E.Xalizevning “Adabiy tanqidning tarkibi va uning metodologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida” nomli maqolalar siklining “XX asr adabiyotshunosligi: Tarix, metodologiya, adabiy jarayon” nomli maqolasida (– M., 2001. – B.7.), A.N.Veselovskiyning ayrim asarlarida “turkumlilik” tushunchasi XIX – XX asrlar bo‘lag‘asida adabiy tanqidda odatiy holga aylanib, kiritilib, uni ijtimoiy ongning eng qadimgi obrazli va she‘riy shakllaridan biri deb ataganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, Veselovskiy aynan marosim qo‘shiqlarining liro-epiklik xususiyati turkumlilik bilan bog‘liq ekanligi, ular qo‘shiqchilar tomonidan birlashtirilganligi, qo‘shiqlarning bir-biridan ajratganda undagi keng ko‘lamli tasvir yo‘qolishi va umumiy mazmun-mohiyatga putur yetishi xususida so‘zlangan. (Veselovskiy A.N. Tarixiy poetika. – M., 1989.- B. 209.)

Yana bir adabiyotshunos L.E. Lyapina “Adabiy turkumlilik (o‘rganish tarixi bo‘yicha) nomli tadqiqotida ushbu hodisaning o‘sha paytgacha o‘rganilish tarixiga atroflicha to‘xtalgan (“Rus adabiyoti” jurnali, 1998 yil, 1-son. 170-bet).

Shoir Sergey Dovlatov o‘zining qarashlarida turkumlilikni ijodkorning ichki kechinmalarining bir butunlikdagi ifodasi yoki aniq ko‘rinishlaridan biri sifatida baholaydi. Turkumlilikni nasrda yaxlit birliklar yaratish uchun qulay usuli sifatida ko‘rib chiqishni ma‘qul ko‘rganligi, ushbu jihatni nazmda ham tekshirish dolzarbligini dalolatlaydigan muhim muammo ekanligini asoslaydi.

Rus adabiyotshunosligida sikl she‘rlarning badiiy xususiyatlari, janriy o‘ziga xosligi, matndagi mazmun butunligi, adabiy asarda muallifning o‘rni, xronotop, uslub va boshqa masalalar atroflicha o‘rganilgan (M.M.Baxtin, V.B.Shklovskiy, A.P.Kaftymov, L.

I.Timofeyev, G.N.Pospelov, M.M.Girshman, V.E.Xalizev, V.I.Tyupa, L.Yu.Fukson kabi olimlar tadqiqotlari bunga misol).

Turkumlilikning badiiy xususiyatlari sifatida badiiy asarlar strukturasi, sikl tarkibida qo‘llanilgan estetik vositalar tizimi tushuniladi. Bunda asarning badiiy g‘oyasi va tasviriy vositalar jamlanmasi o‘rtasidagi munosabatni o‘rnatish ham muhim ekanligi nazarda tutiladi. (KLE. T.5. – M., 1968. 936-bet).

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, turkumlilik o‘rganilishining dolzarbligi, XX asrning ikkinchi yarmi adabiyotini bu kabi nazariy tushunchaning rivojlanish tarixini hisobga olgan holda chuqur va har tomonlama tadqiq etish zarurati bilan belgilanadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida turkumlilik haqida ayrim nazariy manbalarda umumiy jihatlar u yoki bu darajada qayd etilgani bilan ushbu holat alohida shaklda tadqiq etilmagan. Bu shakldagi asarlarga ba’zi hollarda o‘rganilayotgan mavzu doirasida, ba’zan esa biror asarning turkumlilikka bog‘liq jihatlar o‘rganilishi asnosida munosabat bildirilgan, xolos. Hatto o‘zbek lirikasida alohida hodisa deya baholangan sikl she’rlar haqida ham fundamental tadqiqot mavjud emas. Turkumlilik hodisasiga u bilan bog‘liq janrlar tadqiqi jarayonida qaysidir jihatiga ko‘ra ayrim munosabatlar bildirib o‘tilgan.

Xususan, “Go‘ro‘g‘li” eposi silsila dostonlar jamlanmasi ekanligi, unda asosiy obraz Go‘ro‘g‘li cheksiz kuch-qudratga ega bo‘lgan afsonaviy qahramon sifatida talqin etilishi, silsila dostonlar bo‘ylab ko‘chib yurishi va ularning asosiy mazmuni uchun qaysidir jihatidan asos vazifasini o‘tashi haqidagi ma’lumotlar, ya’ni turkumlilik xalq og‘zaki ijodidanoq boshlanganligi haqidagi fikrlar professor va yirik folklorshunos olim To‘ra Mirzayev tadqiqotlarida mavjud [5, 6]. Yana bir folklorshunos olima Salimaxon Mirzayeva o‘z monografik tadqiqotida o‘zbek xalq eposlarida ularning spetsifik xususiyatlariga ko‘ra tadrijiylik va izchillik kabi jihatlar mavjud ekanligi xususida fikr yuritadi [7, 246]. Shuningdek, unda asosiy qahramon atrofidagi umumiylik, izchillik va turkumlilik epik qonuniyatlar asosida yuzaga keltirilganligi xususidagi fikrlar alohida ta’kidlanadi.

Liro-epik janr namunalari bo‘lgan she’riy dostonlarda ham sikl asarlar tajribasini kuzatish mumkinligi haqidagi mulohazalar adabiyotshunos olim, professor No‘mon Rahimjonov tadqiqotlarida [12, 3] uchraydi. Mumtoz ijodkorlardan bo‘lgan Usmonxo‘ja Zoriy ijodida she’riy sikllar mavjudligi haqidagi ma’lumotlar Dildoraxon Abdullayeva tadqiqotlarida uchraydi [13, 5].

Bu borada izlanish olib borgan Hamid Mirzayev o‘zbek adabiyotida sonetlar sikli haqida fikr yuritib, unga quyidagicha ta’rif beradi: “Siklda mavzuning yangi qirralari ochila boradi, lirik kechinmalar esa ana shu siklning yadrosi. Mavzuga taalluqli barcha narsa shoir kechinmalaridan kuch oladi, emotsional ta’sir quvvatiga erishadi. Biz barcha narsani shoir shaxsiyati orqali qabul qilamiz, mavzuga uning nigohi orqali qaray boshlaymiz” [6, 65].

H.Mirzayev ta’kidlaganidek, o‘zbek sonetnavisligida turkumlilik hodisasi tipologik xususiyatlarni mujassamlashtirgan. Sikl tarkibidagi sonetlarni mohiyatan izchil va ketma-ket

bog‘liqlikda tushunish mumkin. Ular biri-birini mazmunan to‘ldirib, xulosa sari tushib boradi. Kompozitsiya va syujet elementlarining joylashishida ham o‘zaro bog‘liqlik kuzatiladi.

S.Rahmonovanning sonet janri tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiyasining ikkinchi bobining bitta fasli “Sonetlar turkumida poetik struktura va badiiy konsepsiya” deb nomlangan va bu faslda ham o‘zbek sonet sikllari haqida mulohaza yuritiladi: “Sonetlar sikli mustaqil sonetlarni struktura, semantika va badiiy konsepsiya singari aniq poetik komponentlar asosida uyushtirgan mustaqil asardir. Sikldagi sonetlar poetik struktura: semantika, vazn, qofiya va bo‘g‘inlar miqdori jihatidan moslik asosida dialektik butunlikni saqlaydi. Sonetlar siklida ham alohida sonetdagi singari tezis-antitezis va sintez tartibi talab qilinadi” [8, 17]. Ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda yana shuni ta’kidlash mumkinki, sonetlarda kompozitsiya va syujet unsurlarining joylashuvdagi moslik ham turkumlilikni asoslaydi. Sonetlar miqdoridan qat’iy nazar, ularni bog‘lab turuvchi umumiy kompozitsion tuzilish mavjud. Bunga mos ravishdagi syujet unsurlarining shartli joylashuvini ham sezish mumkin. Ya’ni sonetlar lirik qahramon kechinmalari tavsifiga ko‘ra biror unsur vazifasini bajaradi. Har bir turkumda o‘zining yakka lirik qahramoni mavjud bo‘ladi. Markazda esa aynan shu lirik qahramon ruhiyatidagi o‘zgarishlar jarayoni va undan kelib chiqadigan oqibatlar turadi.

Hamid Mirzayev Rauf Parfi she’riyatidagi sonetlar sikllari xususida so‘zlab, ularda, asosan, falsafiy ruh yetakchi ekanligini ta’kidlaydi va ushbu sikllarga shoirning “Sunbula”, “Barnobonu”, “Og‘riq”, “Mikelanjelo sevgisi” kabi sonet to‘plamlarini kiritadi.

Ko‘rinadiki, ushbu tadqiqotlar aynan she’riy turkumlilik mavzusining o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlanmagan. Turkumlilikning o‘zbek adabiyotida shakllanish jarayoni haqida adabiyotshunoslar ushbu shaklning ildizlari qadimgi davr adabiyotidan kelib chiqqanligini ta’kidlash orqali munosabat bildiradi. Bu fikrda jon bor. Chunki qadimgi toshbitiglarda spetsifik xususiyatlariga ko‘ra tadrijiylik va izchillik kabi jihatlar mavjud bo‘lib, bunday mazmun she’rlar qurilishida va kechinmalar tavsifida ham ko‘zga tashlanadi. “Devoni lug‘otit turk” asari tarkibidagi to‘rtliklar bir mavzu doirasida ekanligi, unda asosiy jihat inson va tabiatning aloqadorligi asosida talqin etilishi, ularning asosiy mazmuni uchun umumiy jihat bo‘lishi haqidagi ma’lumotlar turkumlilik qadimgi va o‘rta asrlarda shakllangan ekanligini dalolatlaydi. Asosiy mavzu atrofidagi umumiylik, izchillik va turkumlilik lirik qonuniyatlar asosida yuzaga keltirilgan.

Turkum she’rlarni yozishdan asosiy maqsad inson ruhiyatidagi evrilishlar jarayonini tasvirlash, undagi insoniylik tushunchasining o‘ta murakkab hamda dialektik qirralarini aks ettirish orqali moddiyat olamidagi odam deb atalgan mavjudotning qanday ishlarga qodir ekanligini yana bir bor isbotlab berishdan iborat, deyish mumkin. Turkumlilikning badiiy-estetik tabiati uning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va bu boradagi poetik izlanishlar asnosida atroflicha o‘rganilishmaqsadga muvofiq.

O‘zbek adabiyotida sonetlar turkumini Usmon Nosir o‘zining “Nil va Rim” she’ri bilan boshlaganligi xususida tadqiqotchi Hamid Mirzayev o‘z fikrlarini bildiradi. “Turkumda mavzuning yangi qirralari ochila boradi, lirik kechinmalar esa ana shu siklning yadrosi.

Mavzuga taalluqli barcha narsa shoir kechinmalaridan kuch oladi, emotsional ta'sir quvvatiga erishadi. Biz barcha narsani shoir shaxsiyati orqali qabul qilamiz, mavzuga uning nigohi orqali qaray boshlaymiz“ [6, 65]. Tadqiqotchi o‘z maqolasida “Nil va Rim”ning katren va tersetlarga bo‘linmagan bo‘lsa-da, sonet janriga mohiyatan taalluqli ekanligini isbotlashga uringan. Lekin “Nil va Rim”ning qismlari sonet janri qonuniyatlariga nafaqat katren va tersetlarga bo‘linmaganligiga ko‘ra, balki qofiyalanish tartibi va kompozitsion qurilishidagi qat’iylikka ko‘ra ham daxlsiz ekanligini aytib o‘tish joiz. Chunki uning 6 ta qismining barchasi bir xilda a-a-b-b, v-v-g-g, d-d-e, e-yo-yo tarzida qofiyalangan. Bu ko‘rinishdagi qofiyalanish masnaviyga xos ekanligi ma’lum. Lekin asarni masnaviy usulida yozilgan ham deb bo‘lmaydi. Chunki u o‘ziga xos bo‘limlarga taqsimlangan va bu taqsimlanishda 14 qator asos qilib olingan. Tadqiqotchi aytganidek, mohiyatan ham sonet talabiga u darajada javob bermaydi. Chunki sonet janrida syujetdagi muammo-ko‘tarilish-kulminatsiya-yechim holati bor bo‘lishi talab etiladi. Lekin “Nil va Rim” asarida bular aynan uchramaydi. Asarda ayrim qismlar mohiyatan sonetga o‘xshamaydi. Chunki ularda bu janrga xos bo‘lmagan anafora, parallelizm, takrir kabi badiiy tasvir vositalari qo‘llanilgan. Bizning fikrimizcha, “Nil va Rim” sonet janrida yozilmagan. Agar doston bo‘limlari ushbu janr namunalari bo‘lganida u sonet sikllari emas, balki sonet-doston bo‘lgan bo‘lar edi. Xullas, Usmon Nosir asar mazmuni va she’r poetikasi talablariga ko‘ra she’rga o‘n to‘rt qatorli bandlar tanlagan, xalos. Bu holat Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romaniga tanlangan o‘n to‘rt qatorli shaklni eslatadi.

S.Rahmonovanning sonet janri tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiyasi ikkinchi bobidagi bir fasli “Sonetlar siklida poetik struktura va badiiy konseptsiya” deb nomlangan va bu faslda ham o‘zbek sonet sikllari haqida mulohaza yuritiladi. Unda ham “Nil va Rim” dastlabki sonetlar sikli ekanligi ta’kidlanadi. Asoslash maqsadida keltirilgan N.Ochilovning G‘arbda oltita sonetdan iborat sikllar ommalashganligi [8, 17] haqidagi fikrlari ham uni sonet deya da’vo qilish uchun yetarli emas.

Bir mavzu doirasidagi bir qancha she’rlar turkumlilikni tashkil etarkan, umumtipologik xususiyatlardan tashqari yana umumiy g‘oya mushtarakligi, mustaqil kechinma xususiyatlari mavjud bo‘lishi shart ekanligi ham kuzatiladi. Shu ma’noda, Oybekning “Chimyon turkumi”, Mirtemirning “Qoraqalpoq daftari” turkumi, Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari” turkumi kabilar mukammal tajriba namunalari sifatida e’tirof etiladi.

Rauf Parfi va Faxriyorlar yozgan sonet turkumlari mazmun-mohiyati va badiiyati yuksakligi bilan o‘zbek sonetnavisligining ajoyib yutuqlari bo‘la oladi. Rauf Parfi she’riyatida ko‘p sonet to‘plamlar mavjud. Hamid Mirzayev maqolasida shoir she’riyatidagi sonetlar sikllari xususida to‘xtalib, ularda, asosan, falsafiy ruh yetakchi ekanligini ta’kidlaydi va sikllarga shoirning “Sunbula”, “Barnobonu”, “Og‘riq”, “Mikelanjelo sevgisi” kabi aksar sonetlar majmualarini kiritadi. Sonet sikllarining o‘ziga xos jihatlaridan biri unda kompozitsion yaxlitlik ham shaklga, ham mazmunga taalluqli bo‘lishida. Rauf Parfining “Sensiz”, “Tangri sog‘inchi”, “Qora devor”, “Thakurning oxirgi she’ri”, “Yo‘lovchi”, “Hamlet”, “U dunyoga onamga maktub” kabi majmualarni ham sonetlar sikli namunalari deyish mumkin. Shoirning

“Sensiz” sikli tarkibiga uchta sonet jamlangan. Rauf Parfi yaratgan sonet sikllarining o‘ziga xos jihati shundaki, har bir sonetda mavjud bo‘lgan kompozitsion yaxlitlik unsurlari turkum uchun ham xos bo‘ladi.

Faxriyor turkumdagi she‘rlarning qofiyalanishida turli xillikka yo‘l qo‘yadi. Ya’ni o‘nta sonetning asoiy qismi – 5, 7, 9, 10- sonetlar a-b-a-b, v-g-v-d, e-yo-e, j-yo-j shaklida qofiyalangan. Qolganlari qofiyalanish tizimida xilma xillik kuzatiladi. Lekin aksari sonet spetsifikasi qoidalariga javob beradi. Qofiyalanish tartibidagi har xillik kechinma tasviri evrilishlari bilan bog‘liq bo‘lganligidan sonetlarning umumiy saviyasiga u darajada salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Bu holatni shoirning o‘ziga xos uslubi deya qabul qilish mumkin.

O‘zbek sonetnavisligida turkumlilik hodisasi H.Mirzayev ta’kidlaganidek, tipologik xususiyatlarni mujassamlashtirgan. O‘zbek sonetnavisligida sonet turkumlari hajman u darajada ko‘p emas, ya’ni ular uch sonetdan o‘n sonetgacha birlashadi. Turkum tarkibidagi sonetlarni mohiyatan izchil va ketma-ket bog‘liqlikda anglash mumkin. Ular mazmunan biri-birini to‘ldirib, xulosa sari enib boradi. Kompozitsiya va syujet unsurlarining joylashuvida ham o‘zaro mutanosiblik kuzatiladi.

Xullas, sonetlar turkumi masalasi o‘zbek sonetnavisligida shakllanib, qaror topayotgan hodisalardandir.

Sonetlardagi turkumlilik hodisasi xususida so‘z borar ekan, sonet – gulchambarlar haqida ham so‘z yuritish zarur. Sonet – gulchambar yaratish shoirdan juda katta mahorat, yuqori saviya, did, tajriba talab qiladi. Gulchambarda 14 ta sonet bo‘ladi. O‘n beshinchi sonet magistral, chambarak (yig‘ma) she‘r deyiladi. Gulchambardagi she‘rlarning barchasi yagona mazmun va shakl orqali bir-biri bilan chambarchas bog‘lanishi kerak. Har bir sonetning oxirgi o‘n to‘rtinchi misrasi navbatdagi yangi sonetning birinchi misrasi bo‘lib kelishi va magistralda bularning barchasi jamlanib mustaqil bir sonet sifatida jaranglashi lozim. U o‘n besh sonet – ikki yuz o‘n misradan iborat she‘rdir.

XULOSA

- O‘zbek sonetnavisligida turkumlilik badiiy-estetik xususiyatga ko‘ra ham, nazariy jihatdan asoslanganligiga ko‘ra ham shakllanib ulgurgan hodisa sifatida tan olingan.

- O‘zbek sonetnavisligida Rauf Parfi va Faxriyorlar ijodida mavjud sonet turkumlari mazmun-mohiyati va badiiyati yuksakligi bilan milliy she‘riyatimizning yutuqlari bo‘la olishi mumkin. Ular yaratgan sonet sikllarida har bir majmuaning o‘zida yakka lirik qahramon mavjud bo‘ladi va uning kechinmasi tabiati sonetlar birligini tashkil etadi. Markazda lirik qahramon ruhiyatidagi evrilishlar jarayoni va natijalari turadi.

- Sonet sikllarining o‘ziga xos tipologik xususiyatlari shakllantirilgan. Bularga turkum tarkibidagi sonetlar uch sonetdan o‘n sonetgacha birlashtirilganligi, ularning mohiyatan izchil va ketma-ket bog‘liqlikda tasvirlanishi, mazmunan bir-birini to‘ldirib, xulosa sari enib borishi kabi xususiyatlar kiradi.

- Turkumlar tarkibida kompozitsiya va syujet unsurlarining joylashuvida ham o‘zaro mutanosiblik kuzatiladi. Xususan, sonetlar miqdoridan qat’iy nazar ularni bog‘lab turuvchi

umumiy kompozitsion tuzilish mavjud. Bunga mutanosib ravishda umumiy lirik syujet unsurlarining joylashuvini ham sezish mumkin. Ya'ni har bir sonet qahramon kechinmalari tavsifiga ko'ra biror lirik syujet unsuri vazifasini o'taydi. Turkumlarning o'ziga xos jihatlaridan biri unda kompozitsion yaxlitlik ham shaklga, ham mazmunga taalluqli.

- Sonetlar kitobxonni kurashga, kelajakka umid bilan qarashga chaqiradi, aftidan inson sevgisining achinarli, g'am-anduhli, tragik tasviri sonetlar turkumining umrboqiyiligini ta'minlaydi. Turkumlarning mohiyati ularda shoir kechinmalarining izchil va o'ziga xos ketma-ketlikda bayon qilinishi imkoniyati kengligida, avtor o'y-fikri, mavzudan kelib chiqqan holda jarangdor tarzda bayon qilinishidadir.

Adabiyotlar:

1. Boyqobilov B. Sonetlar. – T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
2. Faxriyor. Geometrik bahor. – T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2004.
3. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1979.
4. Mirpo'lat Mirzo. Onajon. – Toshkent: Yozuvchi. 1999. – 61 b.
5. Mirzayev T. Silsila dostonlar. ("O'zbek xalq dostonlari" kitobiga so'zboshi). – T.: Sharq. 2006.
6. Mirzayev H. O'zbek she'riyatida sonetlar sikli. // O'zbek tili va adabiyoti. 2007. 1-son.
7. Mirzayeva Salimaxon. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. – T.: Fan. 2004. – 246 b.
8. Rahmonova S.R. O'zbek sonetlari: poetik struktura va badiiy obraz. Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoreferati. – T., 2010.
9. Rauf Parfi. So'nggi vido. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 90-b.
10. Salomov G', Komilov N., Jo'rayev T. Sonetda yangratdim torimni. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – 346-b.
11. To'ychiyev U. Adabiy turlar va janrlar. 2-tom. – T.: Fan, 1992. – 250 b.
12. www.ijod.uz/?p=13981/page1. Rahimjonov N. Badiiy tafakkurdagi evrilishlar.
13. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-493079-1.html?page>. Abdullayeva Dildoraxon Zumratbekovna. Usmonxo'ja Zoriy hayoti.
14. Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna. (2021). Poetics of Uzbek Cycle Sonnets. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, Vol. 9 No. 6 (2021): GIIRJ. 394–402. <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/168>